



## HAQIQAT KONSEPTI ASOSIDA HARBIY TA'LIMDA XORIJIY TIL O'QITISHNING KOMMUNIKATIV VA STRATEGIK AHAMIYATI

*O'zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va  
mudofaa universiteti quruqlidagi qo'shinlar  
instituti Tillar kafedrası  
dotsenti,  
p.f.f.d, (PhD), dotsent **D.M. Raxmonqulova***

### **Annotatsiya**

*Mazkur maqolada haqiqat konsepti asosida xorijiy tilni harbiy ta'limda o'qitishning dolzarbligi, uning kommunikativ va strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Til – bu nafaqat muloqot vositasi, balki axborotni anglash, uni yetkazish va global xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida ko'riladi. Zamonaviy dunyoda harbiy sohaga qo'yilayotgan talablar tobora ortib borishi xorijiy tilni o'rganish iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Ushbu maqolada xorijiy tilni o'qitish jarayonining xususiyatlari, talabalarining o'quv ehtiyojlarini hisobga olgan holda qo'llaniladigan pedagogik uslublar hamda dasturlar tahlil qilingan. Maqola natijasida xorijiy til bilan samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan takliflar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** haqiqat konsepti, harbiy ta'lim, xorijiy til, kommunikatsiya, strategik fikrlash, strategik yondashuv, o'qitish metodologiyasi, til ko'nikmalari, axborot xavfsizligi.*

### **Аннотация**

*В статье анализируется актуальность преподавания иностранного языка в военном образовании, его коммуникативное и стратегическое значение, основанное на концепции истины. Язык — это не только средство*



общения, но и важнейший фактор понимания и передачи информации, а также обеспечения глобальной безопасности. В современном мире, с ростом требований к военным, изучение иностранного языка становится одним из важных факторов развития экономических, политических и культурных связей. В статье анализируются особенности процесса обучения иностранным языкам, используемые педагогические методы и программы с учетом образовательных потребностей студентов. В статье представлены предложения, направленные на развитие навыков эффективного общения на иностранном языке.

**Ключевые слова:** концепция истины, военное образование, иностранный язык, коммуникация, стратегическое мышление, стратегический подход, методика обучения, языковые навыки, информационная безопасность.

#### **Annotation**

*This article analyzes the relevance of teaching a foreign language in military education based on the concept of truth, its communicative and strategic significance. Language is not only a means of communication, but also a decisive factor in understanding information, its transmission and ensuring global security. In the modern world, the increasing demands placed on the military sphere make learning a foreign language one of the important factors in the development of economic, political and cultural relations. This article analyzes the features of the process of teaching a foreign language, pedagogical methods and programs used taking into account the educational needs of students. As a result of the article, proposals are made aimed at forming effective communication skills in a foreign language.*

**Keywords:** concept of truth, military education, foreign language, communication, strategic thinking, strategic approach, teaching methodology, language skills, information security.



## Kirish

Insoniyat tarixida til eng kuchli aloqa vositasi bo‘lib kelgan. Til orqali nafaqat axborot uzatiladi, balki madaniyat, tafakkur va haqiqat tushunchasi ham shakllanadi. Tilni o‘rganish – bu yangi haqiqatni kashf qilishdir. Har bir til o‘ziga xos dunyoqarashni, haqiqatni idrok etish uslubini aks ettiradi. Masalan, ingliz tilida “*truth*” tushunchasi odatda faktlar va dalillarga bog‘liq bo‘lsa, sharq tillarida bu tushuncha ko‘proq ruhiy yoki ichki haqiqat bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, yangi til o‘rganish – boshqa xalqning haqiqatga qanday qarashini tushunish demakdir. Til yordamida odamlar o‘z fikrlarini ifoda etadi, bir-biri bilan muloqot qiladi, bilim va tajribalarini avloddan avlodga o‘tkazadi. Ammo tilning ahamiyati faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki haqiqatni anglash va ifoda etishdagi roli bilan ham juda muhimdir. Aynan shu jihatdan til o‘rganish inson uchun haqiqatga olib boruvchi yo‘ldir. Zamonaviy dunyoda harbiy sohaga qo‘yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Endilikda harbiy xizmatchi nafaqat jismonan chiniqqan va harbiy bilimga ega bo‘lishi, balki keng fikrlovchi, kommunikativ qobiliyatli va til bilimi yuqori bo‘lgan shaxs bo‘lishi talab etiladi. Shu bois, harbiy ta’lim muassasasi talabalari uchun xorijiy tillarni o‘rganish zamon talabi bo‘lib, bu jarayonning chuqur mohiyatini haqiqat konsepti misolida tahlil qilish mumkin.

*Haqiqat* — bu inson tafakkurida mavjud bo‘lgan hodisa va jarayonlarning obyektiv aksidir. Falsafada haqiqat ko‘pincha uch darajada ko‘riladi: obyektiv haqiqat, subyektiv haqiqat va mantiqiy haqiqat. Harbiy sohada esa haqiqat tushunchasi ko‘proq axborot, aniqlik va ishonchlilik bilan bog‘liq. Harbiy qarorlar ko‘pincha mavjud ma’lumotlarga asoslanadi va bu ma’lumotlarning aniqligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri natijaga ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy urushlar faqatgina maydonda emas, balki axborot maydonida ham olib boriladi. Raqib tomonidan tarqatilgan noto‘g‘ri ma’lumot, dezinformatsiya yoki manipulyativ axborotlar haqiqatni buzib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Bunday vaziyatlarda harbiylar nafaqat axborotni tahlil qila olishi, balki uni til vositasida to‘g‘ri tushunishi va tarqata olishi zarur. Bu esa



ularning xorijiy til bilim darajasiga bevosita bog'liq. Shuningdek, harbiy operatsiyalarda xalqaro hamkorlik, tinchlikparvar missiyalar yoki diplomatik aloqalar davomida madaniyatlararo kommunikatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Harbiy xizmatchilar xorijiy tillarni yaxshi bilmagan taqdirda, haqiqatni noto'g'ri talqin qilishi yoki yetkazishda xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Bu esa strategik jihatdan salbiy oqibatlariga olib keladi. Haqiqatni anglash va uni to'g'ri ifodalash nafaqat axborot xavfsizligi, balki jamiyat ishonchini saqlab qolishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Harbiylar orqali tarqatiladigan axborot aholiga, hamkor davlatlarga yoki xalqaro tashkilotlarga ishonchli ko'rinishi uchun u lingvistik va madaniy jihatdan to'g'ri shakllantirilgan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham harbiy ta'limda xorijiy til o'qitish faqat grammatikani emas, balki haqiqatni aks ettirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilishi kerak.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Harbiy ta'lim — bu nafaqat jangovar harakatlar uchun tayyorgarlik, balki harbiy xizmatchining fikrlash doirasi, axborotni tahlil qilish qobiliyati, hamda strategik muloqot olib borish salohiyatini shakllantiruvchi tizimdir. Xorijiy til o'qitilishi ushbu tizimning ajralmas qismi sifatida, harbiy xizmatchilarning strategik fikrlashini chuqurlashtirish va axborotni aniq yetkazish mahoratini rivojlantirishda muhim vositadir. Zamonaviy harbiy harakatlar ko'p hollarda ko'p millatli ittifoqlar doirasida amalga oshiriladi. NATO, BMT va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan olib boriladigan hamkorliklarda birgalikda ishlash, qaror qabul qilish va axborot almashish yuqori darajadagi kommunikativ tayyorgarlikni talab qiladi. Bu esa harbiy ta'limda xorijiy tilni nafaqat o'rganish, balki uni real kontekstda ishlata olish ko'nikmasini rivojlantirish zaruratini tug'diradi.

Kommunikativ strategiyalar deganda, harbiy xizmatchining:

- xorijiy tillarda aniq va qisqa axborot berishi,
- madaniyatlararo noziklikni tushunib, o'z fikrini diplomatik ifodalay olishi,
- noto'g'ri tushunilgan holatlarga to'g'ri va tezkor javob bera olishi,



- axborot muhitida tahliliy yondashuv bilan haqiqatni farqlay olishi kabi ko'nikmalari nazarda tutiladi.

Harbiy ta'limda bu strategiyalarni shakllantirish uchun xorijiy til darslari faqatgina grammatikaga emas, balki situatsion mashg'ulotlar, harbiy matnlarni tahlil qilish, axborot tahliliy mashqlar, va ro'yxatdan chiqqan real voqealar asosida muloqot simulyatsiyalariga asoslanishi lozim.

Shuningdek, kommunikativ strategiyalarni rivojlantirishda "haqiqatga sodiqlik" tamoyili ustuvor ahamiyatga ega. Harbiylar tomonidan yetkazilgan har qanday axborot — buyruq bo'ladimi, ogohlantirishmi yoki axborot hisobotimi — ishonchli, tekshirilgan va haqiqatga mos bo'lishi zarur. Shuning uchun ham xorijiy til o'qitish jarayoni harbiy intizom, mas'uliyat va ishonchlilik tamoyillari bilan uyg'unlashtirilgan bo'lishi kerak.

Xorijiy tilni o'qitish masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. V.A. Zimnyaya (2018) xorijiy tilni o'qitishda kommunikativ uslubni asos sifatida qabul qilishni tavsiya etadi. J.L. Bygate (2017) esa til ko'nikmalarini rivojlantirishda amaliy mashqlarga e'tibor qaratishni tavsiya qiladi. O'zbekistonda esa A.M. Mirzayev (2020) xorijiy tilni o'qitishda interfaol uslublardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, xorijiy tilni o'qitishda kasbiy yo'nalishga moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish muammosi ham o'rganilgan.

Aynan harbiy sohada tahsil oluvchi talabalarda xorijiy tilni o'rganish bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar sifatida Dr. Thomas Sticht, E. Thomson, D.Kilcullenlarni keltirib o'tish mumkin. A. Siegel, M. Vance tomonidan olib borilgan "Harbiy Ingliz tili ta'limi bo'yicha 30 yillik tadqiqot" ishida xorijiy tilni o'rgatish bo'yicha 30 yillik ilmiy ishlar korib chiqib, til o'rganishning harbiylar uchun kommunikatsiya va madaniy tushunishni oshirishdagi rolini ta'kidlaydi. AQSH Mudofaa vazirligining (DoD) Tillarni O'qitish Markazi (LTC) Dasturi Til, madaniyat va mintaqaviy tadqiqotlar bo'yicha Savdo vazirligi xodimlarini tayyorlash uchun oliy ta'lim muassasalarining tajribasi va infratuzilmasidan



foydalanadi. Mudofaa tili va milliy xavfsizlik bo'yicha ta'lim boshqarmasi (DLNSEO) RAND korporatsiyasidan 2011 yilda tashkil etilgan va 2017 moliya yilida to'qqizta universitetdagi markazlarni o'z ichiga olgan LTC dasturini tekshirishni so'radi. Ushbu baholash DoDga dasturning hayotiyligi va davom etishi to'g'risida asosli qarorlar qabul qilishda yordam berish uchun mo'ljallangan. RAND tadqiqot markazi AQSH Mudofaa Vazirligi uchun til va madaniyat o'rgatish dasturlarining samaradorligi til va hududni o'rganish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish, operativ tayyorgarlik uchun muhim va strategik tillarda til o'rgatishlarini ta'minlash va turli xil DoD hamkorlariga o'qitish uchun muqobil tillarni o'qitish tizimlaridan foydalanishni o'rganib, bu sohadagi ehtiyojlarni aniqlab va takliflar ishlab chiqishda ishtirok etgan, izchillikni oshirishni rag'batlantirish va sezgirlikni, innovatsiyani va potentsial o'sishni qo'llab-quvvatlashni davom ettirgan holda natijalarni mazmunli o'lchashni oshirishdan iborat.

Masalan, N.K. Karimov (2019) harbiy soha talabalari uchun maxsus terminologiyaga ega materiallardan foydalanishni tavsiya etadi. Ushbu tadqiqot quyidagi metodlardan foydalanib olib borildi:

- *Kuzatuv metodi* – talabalarining xorijiy tilni o'rganish jarayonida qanday muammolar bilan duch kelishini aniqlash.

- *Suhbatlashish metodi* – o'qituvchilar va talabalar bilan suhbat orqali xorijiy tilni o'qitish samaradorligini baholash.

- *Testlash metodi* – talabalarining xorijiy til bilan bog'liq bilim darajasini aniqlash.

- *Tahlil metodi* – mavjud darsliklar va o'qitish dasturlarining samaradorligini tahlil qilish orqali xorijiy tilni o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi.

### **Tahlil va natija**

Xorijiy tilni o'rganish, ayniqsa harbiy kontekstda, oddiy til bilimidan ancha keng tushunchani qamrab oladi. Bu, birinchidan, to'g'ri muloqot qurish, ikkinchidan



esa xalqaro darajada ishonch va tushunishni shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Harbiylar uchun xorijiy til bilimining kommunikativ ahamiyati — bu ularning nafaqat o‘z fikrini aniq ifodalashi, balki boshqa madaniyat vakillarini to‘g‘ri tushunishi va shunga mos tarzda muloqot olib borishi bilan belgilanadi. Bugungi global xavfsizlik tizimi ko‘p millatli hamkorliklarga asoslangan. Misol uchun, tinchlikparvar missiyalar, koalitsion kuchlar bilan olib boriladigan operatsiyalar, va hatto xalqaro harbiy mashg‘ulotlarda til — asosiy aloqa ko‘prigi hisoblanadi. Xato yoki noto‘g‘ri tushunilgan birgina jumla butun operatsiyani xavf ostida qoldirishi mumkin.

**Shuningdek, xorijiy tilni kommunikativ jihatdan o‘rgatish harbiylarga:**

Murosali, betaraf va diplomatik tilda fikr bildirish,  
Axborotni tushunarli, kontekstga mos va qisqa shaklda etkazish

Tashqi axborotlarni tanqidiy tahlil qilish,  
Boshqa millat vakillari bilan to‘g‘ri aloqa o‘rnatish imkonini beradi.

Harbiylar uchun til o‘qitishda ro‘zg‘or tilidan ko‘ra, kasbiy va funksional til ustuvor hisoblanadi. Ya’ni, ularga og‘zaki suhbatu yozma hujjatlarda tezkor va aniqlikni ta’minlovchi til ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Bunga misol tariqasida: buyruq berish, hisobot yozish, ogohlantirish va taklif bildirish kabi nutq aktlari kiritiladi. Bundan tashqari, xorijiy tilni kommunikativ kontekstda o‘qitish orqali harbiylar: haqiqatni noto‘g‘ri talqin qilish ehtimolini kamaytiradi, soxta axborotlarga nisbatan tanqidiy yondashuvni shakllantiradi, ishonchli va madaniyatlararo sezgirlikka ega bo‘lgan liderlarga aylanishadi. Shu tariqa, xorijiy til o‘qitish kommunikativ jihatdan harbiylarning ichki va tashqi aloqalarini mustahkamlash, hamda xavfsizlikni



ta'minlashda hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Harbiy sohada xorijiy til o'rganish nafaqat muloqot vositasi sifatida, balki milliy xavfsizlik, diplomatik aloqalar, razvedka va strategik muvofiqlikni ta'minlovchi vosita sifatida qaraladi. Xalqaro siyosiy muhit tobora murakkablashib borayotgan bir paytda, harbiylar uchun xorijiy til bilimining strategik ahamiyati keskin oshmoqda.

*Birinchidan*, xorijiy til bilish harbiylarga xalqaro axborot makonida erkin harakat qilish, ya'ni xorijiy manbalarni o'qish, tahlil qilish va ulardan foydalana olish imkonini beradi. Ayniqsa, axborot urushlari va kiberxavfsizlik masalalari dolzarb bo'lib turgan hozirgi davrda bu juda muhim. Harbiylar real vaqt rejimida xorijiy axborot manbalarini tushunib, strategik qarorlar qabul qilishda aniq va ishonchli axborotga tayana oladi.

*Ikkinchidan*, xorijiy til — bu razvedka faoliyatining asosiy komponenti hisoblanadi. Dushman yoki sherik davlatlarning bayonotlarini, harakatlarini, axborot oqimini to'g'ri tushunish va tahlil qilish strategik ustunlik beradi. Bu ustunlik esa o'z navbatida harbiy operatsiyalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

*Uchinchidan*, xorijiy til harbiylar uchun diplomatik vosita vazifasini bajaradi. Harbiy attachélar, xalqaro delegatsiyalar a'zolari, va tinchlikparvar missiyalardagi ofitserlar doimiy ravishda xorijiy davlatlar vakillari bilan muloqotda bo'lishadi. Bu muloqotda har bir so'z, har bir ibora diplomatik ma'no kasb etadi. Xatolik yoki kontekstni noto'g'ri tushunish siyosiy ziddiyatga olib kelishi mumkin. Shuning uchun strategik darajadagi til ko'nikmalari harbiy ta'limda alohida e'tiborga loyiq.

*To'rtinchidan*, harbiy xizmatchilar xalqaro mashg'ulotlarda, koalitsion kuchlar tarkibida xizmat qilganda, til orqali rahbarlik qila olish, hamkorlikni boshqarish, va missiyani koordinatsiya qilish imkoniga ega bo'lishadi. Bu esa ularning strategik ahamiyatini oshiradi va xalqaro doirada milliy manfaatlarni himoya qilish salohiyatini kuchaytiradi. Qo'shimcha qilib aytganda, xorijiy til o'qitish harbiy ta'lim tizimida strategik jihatdan quyidagi yo'nalishlarga xizmat qiladi:






- milliy xavfsizlikni ta'minlash;
- axborot tahlili va razvedka samaradorligini oshirish;
- xalqaro diplomatik aloqalarni mustahkamlash;
- strategik hamkorlik va liderlik ko'nikmalarini shakllantirish.

### **Xulosa**

Til o'rganish – bu oddiy ko'nikma emas, balki haqiqatni turli jihatdan ko'ra olish, uni chuqur anglash va boshqalar bilan baham ko'rish imkonidir. Har bir til – bu insoniyat tafakkurining o'ziga xos aksidir. Shunday ekan, til o'rganish orqali biz haqiqatga yanada yaqinlashamiz, o'zimizni va dunyoni chuqurroq anglaymiz. Har bir o'rganilgan til inson ichki olamini boyitadi, tafakkurini kengaytiradi, fikrni aniq va ravon yetkazishga xizmat qiladi. Til orqali inson o'z ichki haqiqatini tashqi olamga chiqara oladi. Shunday ekan, til o'rganish – bu nafaqat tashqi haqiqatni anglash, balki o'z haqiqatini yaratish jarayonidir. Til o'rganish orqali harbiy xizmatchi nafaqat tashqi axborotni to'g'ri qabul qiladi, balki o'z fikrini ham aniq, ishonchli ifoda eta oladi. Bu esa harbiy intizom, yetakchilik va strategik fikrlash kabi fazilatlar bilan bevosita bog'liqdir. Demak, til o'rganish harbiylar uchun nafaqat bilim, balki ichki va tashqi haqiqatni anglash vositasidir. Harbiy ta'lim yo'nalishidagi talabalarda xorijiy tilni o'qitish jarayoni ularning kasbiy faoliyatlariga moslashtirilgan holda olib borilishi lozim. Ushbu maqolada olib borilgan tadqiqot natijasida talabalarning xorijiy tilni o'rganish jarayonida uchrab turadigan muammolar aniqlandi va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi. Xorijiy tilni o'qitishda interfaol uslublardan foydalanish, amaliy mashqlarni ko'paytirish va kasbiy terminologiyaga e'tibor qaratish talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Yuqoridagi tahlillar asosida aniqlanishicha, xorijiy tilni o'qitish harbiy ta'lim tizimida nafaqat kommunikativ vosita sifatida, balki strategik ahamiyatga ega omil sifatida qaralishi zarur. Ayniqsa, haqiqat konsepti nuqtayi nazaridan yondashilganda, xorijiy til — bu haqiqatni tushunish, uni yetkazish va himoya qilish quroli bo'lib xizmat qiladi. Harbiy



xizmatchilarning xorijiy tilni o'zlashtirishi — ularning xalqaro maydondagi ishonchliligini, axborotga nisbatan tanqidiy fikrlash darajasini va milliy xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini mustahkamlaydi. Bugungi kunda harbiylar uchun til — bu oddiy aloqa vositasi emas, balki:



Shu bois, harbiy ta'limda xorijiy tilni o'qitish jarayoniga yondashuv yangilanmog'i, uni zamonaviy kommunikativ va strategik talablar asosida tashkil etish zarur.

Quyidagi takliflar ushbu jarayonni takomillashtirishga xizmat qiladi:

1. Xorijiy til kurslarini ixtisoslashtirish – umumiy til o'rgatishdan tashqari, harbiy soha, diplomatiya va xavfsizlikka doir maxsus modullar joriy etilishi lozim.
2. Real kontekst asosida o'qitish – haqiqatni anglash va ifodalashni kuchaytirish maqsadida mashg'ulotlar real vaziyatlarga asoslangan ssenariylar orqali olib borilishi kerak.
3. Madaniyatlararo kommunikatsiyaga e'tibor – til o'rganish jarayonida boshqa millat vakillarining madaniyatini tushunish, madaniy sezgirlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.
4. Axborot xavfsizligi bo'yicha integratsiyalashgan yondashuv – harbiylar til orqali axborotni qanday himoya qilish va noto'g'ri talqinlarga qarshi turish bo'yicha ham tayyorlanishi kerak.
5. Ko'p tillilik siyosatini rag'batlantirish – ingliz tilidan tashqari boshqa strategik tillarni (rus, arab, xitoy, fransuz va h.k.) o'rganishga imkoniyat yaratish milliy manfaatlar uchun foydali bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, haqiqat konsepti asosida xorijiy til o'qitish — bu harbiy ta'limning yangicha paradigmasidir. Bu paradigma orqali harbiy xizmatchi axborot



muhitida mustaqil fikrlovchi, strategik muloqotga qodir va global xavfsizlik tizimining faol ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

### Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Li, J.J., Girven, R.S., Griffin, N. (2019). *Meeting the Language and Culture training needs of U.S Department of Defense Personal*. RAND Corporation
2. Siegel, A., Vance, M. (2024). *Military English language education: a scoping review of 30 years of research*. *Innovation in Language Learning and Teaching*, 1-19.
3. Zimnyaya, V.A. (2018). *Kommunikativ uslub va uning xorijiy til o‘qitishdagi ahamiyati*. Moskva: Prosveshcheniye.
4. Bygate, J.L. (2017). *Developing Language Skills through Practice*. London: Pearson Education.
5. Bratu, S.B., Negoescu, A., Morar, L. (2022) *Advantages of Language Proficiency in the Military Environment*. International conference knowledge-based organization, 129-133 p.
6. Mirzayev, A.M. (2020). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning xorijiy til o‘qitishdagi o‘rni*. Toshkent: Fan va Texnologiya.
7. Karimov, N.K. (2019). *Harbiy soha uchun xorijiy til dasturlari*. Samarqand: Universitet nashriyoti.
8. Rahimov, R.R. (2021). *Xorijiy tilni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Ilm-zamon.